



TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ  
XO'JALIGINI MEXANIZATSIALASH  
MUHANDISLARI INSTITUTI



FAN:

MATERIALSHUNOSLIK VA  
KONZTRUKSON MATERIALLAR  
TEXNOLOGIYASI

MAVZU  
**10**

METALLARNI  
PAYVANDLASH  
ASOSLARI



Tashpulatov Quvondiq  
Berdibekovich



Umumtexnik fanlar  
kafedrasi katta o'qituvchisi



## 9- ma`ruza. Metallarni payvandlash asoslari

1. Payvandlash haqida tushuncha.
2. Dastaki elektr yoyli payvandlash texnologiyasi.
- 3..Payvandlash turlari.

## Payvandlash haqida tushuncha.

Detallarning payvandlanadigan joylarni, yumshaguncha yoki eriguncha qizdirib, ularni ajralmaydigan qilib biriktirish **payvandlash** deb ataladi.

Payvandlash paytidagi metallning holatiga kora  
payvandlash 2-ta asosiy guruhga bōlinadi

eritib payvandlash

plastik payvandlash

payvandlanadigan joylarda elektrod yoki  
qoshimcha metall eritiladi, u yerda  
payvand vanna paydo bōladi va u  
qotgandan keyin yaxlit birikma hosil bōladi


birikuvchi joylar qizdirilgandan keyin, ular  
bosim yordamida plastik deformasiyalanadi  
va yaxlit birikma hosil bōladi

Bugungi kunda payvandlashning 50 tadan ortiq usullari mavjud. Bular yoyli payvandlash va uning xillari, plazmali payvandlash, lazer nuri bilan payvandlash, gaz alangasida payvandlash, kontaktli payvandlash, diffuzion payvandlash va boshqalar.

## 2. Dastaki elektr yoyli payvandlash te[nologiyasi

Dastaki elektr yoyli payvandlash – bu usti qoplangan metall elektrodlar yordamida payvandlash. Payvandlashning eng eski va universal usuldir.

Elektr yoyni xosil qilish va ushlab turish uchun elektrodlarga va payvandlanadigan buyumga o'zgaruvchan yoki o'zgarmas payvand toki yetkaziladi.



Elektrod bilan payvandlanadigan metall oraligidagi ionlashgan gaz va bug' muhitidan  
ötib turuvchi kuchli elektr razryad  
elektr-yoy deb ataladi.

Anodda -  $2600^{\circ}\text{C}$ , katodda -  $2400^{\circ}\text{C}$ , yoyda -  $6000\ldots7000^{\circ}\text{C}$ .

## **2.1. Asosiy tushunchalar**

Yoy ta'sirida elektrodning metall o'zagi, uning qoplamasi, buyum metalli eriydi.

Elektrod metallning shlak bilan qoplangan tomchilari payvand vannaga o'tadi va bu yerda asosiy metall bilan aralashadi, erigan shlak esa vanna sirtiga suzib chiqadi .

Payvand vannaning o'lchamlari payvandlash rejimlariga va chokning fazoda joylashishiga, yoyni buyum sirti boylab surilish tezligiga, payvand birikmaning konstruktsiyasiga, birikmaning payvandlanadigan chetlariga ishlov berishga va boshqalarga bog'liq.

Ular odatda quyidagi chegaralarida bo'ladi: chuqurligi 6 mm, eni 8-15 mm, uzunligi 10-30 mm gacha bo'ladi.

**Yoy uzunligi** – bu buyum va elektrod orasidagi masofa.

Dastaki payvandlashda yoy uzunligi payvandlash shroitlariga va elektrod markasiga ko'ra (0,5-1,2)del oraliqda bo'lishi kerak.

Yoy uzunligi bundan kichik bo'lsa chok shakllanishini yomonlaydi va qisqa tutashuvga olib kelishi mumkin/

Yoy uzunligi oshib ketsa chok chuqurligi kamayadi, elektrod metallning sachrashi ko'payadi, chok sifatining mexanik xosalari ham, shakli ham yomonlashadi.

Elektrod qobig'i erish natijasida yoy atrofida va payvand vanna ustida havoni siqib chiqaruvchi va shu bilan payvand chokni himoyalovchi **gaz muhit** xosil bo'ladi. Gaz muhitida legirlovchi elementlar, elektrod va asosiy metall bug'lari ham bo'ladi.

Payvand vanna ustidagi **shlak** uni havodan ximoyalaydi, erigan metallni zararli qo'shimchalardan tozalaydi va sekin sovishni ta'minlaydi.

Payvand vannada metall kristallanadi va payvandlanadigan detallarni biriktiradigan **chok** xosil bo'ladi.

Chok ustida qotgan shlak qatlami bo'ladi.

Yoy elektrod uchini payvandlanayotgan buyumga qisqa tegizganda yonadi.

Qisqa tutashuv toki o'tishi va elektr qarshiligi natijasida elektrod uchi yuqori temperaturagacha tez qizib ketadi, bu temperatura ta'sirida elektrod buyumdan 3-4 mmga qo'tarilganda, gaz oraligi ionizatsiyalashadi va payvand yoy paydo bo'ladi.

**qisqa  
tutashuv**




**suyuq metall ustuni  
paydo bo'lishi**





**bo'yinni paydo  
bo'lishi**



**yoy hosil  
bo'lishi**





## **2.2.Payvandlash davomida elektrodning harakatlari**


Payvandlash davomida elektrod uchta yo'nalishda harakatlanadi.

*Birinchi* harakat – elektrodnini o'z o'qi bo'lاب sekinlik bilan ilgarilanma harakati. Bu bilan elektrodnini erishi bilan yoy doimiy uzunlikda bo'lib turadi.

*Ikkinchi* harakat – elektrodnini chok o'qi bo'ylab harakati. Bu harakatni tezligi tok kuchi, elektrod diametri, elektrodnini erish tezligi, chok turi va boshqa omillar.

*Uchinchi* harakat – elektrodnini chokka tik harakati. Bu harakat chokning eni va chuqurligini ta'minlaydi. Elektrod uchining ko'ndalang yo'naliishdagi tebranma harakati payvand birikmaning chetlarini taylorlashga, material xossalalariga, payvandlovchining tajribasig bog'liq.

Bunday tebranma harakat eni (1,5-5)dej ga teng bo'lgan chok xosil bo'lishiga olib keladi.



Elektrod uchini ko'ndalang harakatlarning traektoriyalari:




- (А, Б) - payvandlanadigan chetlari kam qizdiriladi;
- (В,Г,Д) - payvandlanadigan chetlari me'yorda qizdiriladi;
- (Е-Ж) - payvandlanadigan chetlari kuchli qizdiriladi;
- (З, И) - payvandlanadigan chetlarining bittasi kuchli qizdiriladi; (К) – chok ildizi yaxshi qizdiriladi.

## 2.3. Payvand choklar va birikmalar

### Payvand choklarning turlari

Payvand choklar shakliga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

- uchma-uchli payvand choklar;
- burchakli payvand choklar;
- o'yma payvand choklar.




# Payvand birikmalarning turlari


Payvandlanadigan detallarning birikish xusussiyatiga ko'ra payvand birikmalarning quydagи turlari ajratiladi

- uchma uch birikmalar;
- burchakli birikmalar;
- tavr birikmalar;
- ustma-ust birikmalar;
- toretsli birikmalar.


## uchma- uch birikmalar




chetlarni kesmasdan



chetlari V shaklda kesilgan





chetlari egri kesilgan





chetlari X shaklda kesilgan



burchakli birkmalar | tavr birikmalar  
chetlari kesilmagan



bir cheti kesilgan




ikki cheti kesilgan





chetlari kesilmagan  
ustma-ust birikmalar



toretsli birikmalar

## **2.4a. Dastaki yoy yordamida payvandlashning afzalliklari**

- barcha fazoviy holatlarda payvandlash imkoniyati;
- yetish qiyin bo'lgan joylarda payvandlash imkoniyati;
- tez bitta payvandalsh materialdan boshqasiga o'tish imkoniyati;
- elektrod markalari ko'pligi uchun har xil markali po'latlarni payvandlash imkoniyati;
- payvandlash qurilmalarni oddiyligi va ko'chirish imkoniyati;

## **2.4b. Dastaki yoy yordamida payvandlashning kamchiligi**

- boshqa payvandlash usullariga qaraganda past FIK va ish unumi;
- birikmalar sifati payvandlovchining ma[oratiga bog'liqligi;
- payvandlash sharoitlarini zararligi.

### §3. Payvandlashda qo'llaniladigan elektr tok manbalari



Payvand yoyni özgarmas va özgaruvchan tok bilan ta'minlovchi agregatlar **tok manbalari** deyiladi

payvandlash  
transformatorlari

payvandlash  
generatorlari



**Payvandlash transformatorlari** elektr tarmoqdan kelayotgan tok kuchini oshirib, kuchlanishni kamaytiradi.

**Payvandlash generatorlari** özgarmas tokni ishlab chiqaradi.



Transformatorning birlamchi chulg'ami orqali 220 yoki 380 V tok ötganda özgaruvchan magnit maydoni hosil bōladi.

U ikkilamchi chulg'am oramlari bilan kesishganda unda 50 - 60 V özgaruvchan tokni uyg'otadi.



Özgaruvchan tokni özgarmas tokka aylantirish uchun tog'rilaqich agregatlari qollaniladi.

**Payvandlash generatorlari özgarmas tokni ishlab chiqaradi.**

## §4. Elektrodlar haqida tushuncha.

### Elektrodlar ikki xil bo'ladi

erib ketadigan -suyqlanadigan  
(pōlat, chōyan, rangli metallar)

erimaydigan -suyuqlanmaydigan  
(kōmir, grafit, volfram)

**Pōlat** elektrodlar (1-12 mm, uzunligi 350...400 mm) maxsus kam uglerodli simlardan tayyorlanadi (Св-08, Св-08А), sim tarkibiga choc mustahkamligini oshirish uchun marganes qōshiladi (Св-08ГА, Св-10ГА )

Kōmir elektrodlarning diametri 6-30 mm oraliqda, uzunligi 300 mm gacha bōladi.



**Kōmir** elektrodlar

Po'lat elektrodlar simlari ustiga **mahsus qoplamlar** presslanadi.  
Qoplama moddalarining vazifalari



**Pōlat elektrodlar**

titan oksidi, marganetsli ruda, rutil, marmar, bōr

ferroqotishmalar va legirlovchi elementlar



yoning barqaror yonishini ta'minlaydi

chokni O<sub>2</sub> va N<sub>2</sub> dan himoyalaydi

shlak qatlami hosil qilib sovishni sekinlashtiradi

chok sifatini oshirish: temirni oksiddan qaytarish va chokni legirlash



masalan УОНИ 13/55 markali elektrod qoplaması tarkibiga quyidagilar kiradi: 54% marmar, 21% marganesli ruda, 13% dala shpati, 20% ferromarganes, 9% kraxmal va 30% suyuq shisha.

### Elektrodlarni tayyorlash texnologiyasi

Elektrodlarni tayyorlash uchun qoplama komponentlari maydalaniadi, keyin suyuq shisha bilan qorishtiriladi.

Moy va zangdan tozalangan elektrod simi qoplama pastasi bilan bilan mahsus press silindrleri ko'zasidan 4 - 5 MPa bosimda otkaziladi.

Elektrod qoplaması yorilmasligi uchun elektrodlar 40-50°C quritiladi, keyin 350-400°C gacha qizdiriladi.



Elektrod qobig'ini presslash kallagi:  
1 – korpus; 2 – vtulka; 3 – ko'za; 4 – press porsheni.

## §1. Metallarni plastik (bosim yordamida) payvandlash

Bosim yordamida payvandlash mashinalari asosan  
özgaruvchan tokda ishlaydi.


Tok kuchi 1000-100000 A, tok kuchlanishi 1,5-2 V,  
payvandlash vaqtı 0,1-10 sek.

Plastik usulida payvandlashning uchta usuli mavjud:  
**uchma-uch, nuqtaviy va rolikli payvandlash usullari.**

Uchma-uch payvandlash.


Bu usulda payvandlash yuzalaridan katta kuchli  
tok yuboriladi, kontakt yuzalari qizigandan keyin  
bosim ortirib boriladi.

Kontakt yuzalar eziladi atomlar özaro bog'lanadi  
va sifatli payvand choki hosil boladi.




### Nuqtaviy payvandlash.

Ustma – ust qōyilgan 0,2 - 8 mmli listlar tagidan va ustidan elektrodlar orasiga qisiladi, tok zanjiri ulangandan keyin, kontakt nuqtada metall ezilib, payvandlanadi.








### Roliklar bilan payvandlash.


Bu usulda qalınlığı 0,3 – 3 mm gacha bōlgan pōlat, alyuminiy va mis qotishmalaridan germetik birikmalar, jumladan, rezervuarlar, baklar tayyorlanadi.



Bunda elektrodlar örniga 40-350 mm mis roliklar örnataladi. Payvandlanadigan listlar roliklar bilan özaro siqilgach, transformatorдан kichik kuchlanishli (2 - 5 V) katta tok (10000 – 20000A) yuborilganda kontakt yuzalari qizib ketadi.



## §2. Gaz alangasida payvandlash



metallar yonuvchi gazlar (asetilen) kislorod bilan gorelkada ma'lum nisbatda aralashtirilib, yondirilgan **alanga ta'sirida** eriydi.



Bu usul oddiyligi, boshqarish qolayligi, qimmatbaxo uskunalar talab etilmassligi, alangani turli burchaklar ostida yonaltirib, qiyin choklarni hosil qilish, metallni sekin, tekis qizdirish kabi afzalliklarga ega.

Kalsiy karbiddan asetilen olish uchun mahsus apparatlar - asetilen generatorlardan foydalaniladi.



1 kg kalsiy karbididan 230-300 litr atsetilen gazi olinadi.




Asetilen gazi oq rangga bōyalgan asetilen ballonlarga 1,6 MPa bosimda töldiriladi.

Portlamasligi uchun ballon ichiga asetonga tōyingan g'ovakli massa (kōmir) solingan bōladi.

Kislород xavo rangiga bōyalgan xajmi 40 litr, bosimi 15 MPa maxsus kislород ballonlarda saqlanadi.

Kislород havoni 20 MPa bosimda suyultirish natijasida olinadi.  $-200^{\circ}\text{C}$  temperaturada xavo suyuq holga ôtadi. Keyin temperatura kōtarila boshlaydi,  $-196^{\circ}\text{C}$  xavodan azot bug'lanib ketadi, qolgan kislород  $-183^{\circ}\text{C}$  da bug'lanadi.



**Payvandlash gorelkalarda** yonuvchi gaz bilan kislородни kerakli mikdorda aralashtirib zarur quvvatli alanga hosil bōladi.


Kislорod katta bosim bilan injektordan ôtadi va asetilenni aralashtirish kameraga sōrib oladi. Gorelkaning uchiga har xil rusumli uchliklar örnataladi. Ular payvandlanadigan metall qalinligiga qarab tanlanadi.

Payvand gorelkaga beriladigan bosimni pasaytirish va shu bosimni saqlash uchun ballonlar ustiga **reduktorlar** örnataladi.

Ular kislорod ballondagi 15 MPa bosimini 0,1-0,5 MPa gacha, asetilen ballondagi 1,6 MPa bosimini 0,01-0,15 MPa gacha pasaytirib beradi.

Reduktorni balon ventiliga ularashdan oldin uni moy, kirdan tozalash kerak.

### §3. Metallarni flyus qatlami ostida payvandlash



Jarayon nimadan iborat?


Elektr yoy flyus qatlami ostida yopiq bo'shliqda yonadi. Ustidan yoy erigan shlak qatlami bilan, tagidan payvand vanna bilan chegaralanadi..

Bu usulning afzalliklari nima?

Flyus ostida payvandlash yuqori unumli (4-5 marta dastakiga nisbatan yuqori), jarayon oson avtomatlashtiriladi, choc sifati juda yuqori bo'ladi.

Payvand zona atrof muhitdan yohpiq bo'lgani uchun choc yaxshi ximoyalanadi, flyus suyuq metallni sachrab ketmasligini ta'minlaydi, choc sekin soviydi, ichki zo'riqishlar kam bo'ladi.

## §4. Metallarni himoyalovchi gazlar muhitida payvandlash



Jarayon nimadan iborat?



Himoyalovchi gazlar muhiti sifatida inert (argon, geliy) hamda aktiv gazlar (karbonat angidrid gazi) ishlataladi.  
Св-08Г2С; Св-12ГС; Св-08ГСМТ


Bu usulning afzalliklari nima?



- elektr yoy bilan payvandlashga qaraganda ish unumi ancha yuqori;
- karbonat angidrid gazi ishlatalganda usul nisbatan arzon.

- metall yaxshi himoyalangan;
- har xil fazoviy holatlarda payvandlash mumkin;
- argon gazi ishlatalganda choc ustida shlak qatlami paydo bolmaydi;
- payvand chocning shakllanishini kuzatish va rostlash mumkin ;

## §5. Qalin metallarni elektroshlak usulida payvandlash




Bu usulning afzalliklari nima?

Jarayon nimadan iborat?

Elektroshlak usuli erigan shlakdan payvand toki o'tganda issiqlik ajralishiga asoslangan. Shlak vannasida ajraladigan issiqlik uni o'ta qizdiradi, natijada elektrod va metall chetlari erib payvand vannaga oqib tushadi.

Shlak vannasi erigan metall ustida joylashib uni havodan himoyalab turadi. Elektrodnii uzatish tezligi to'g'ri tanlansa elektrod uchidan erigan metall vannagacha masofa bir xil bo'ladi – jarayon bir tekis kechadi.

## §6. Metallarni elektron nuri yordamida payvandlash



Bu usulning afzalliklari nima?

Jarayon nimadan iborat?

Elektron nuri yordamida vakuum kamerada metallarning payvand-lanadigan chetlari katta tezlikdagi elektronlar oqimi bilan qizdiriladi va eritiladi.

- qizdirish nuqta o'lchamini 0,0002 ... 5 mm oraligida o'zgartirish mumkin, bu qalin metallarni payvandlash imkonini beradi;
- metall deyarli qizimagani uchun, deformatsiyaga uchramaydi;
- payvand choki gazlarga to'yinmaydi.

## Nazorat savollari:

1. Payvandlash nima va uning qanday asosiy guruhlari mavjud.  
Payvand birikmalarning turlarini ta'riflang.
2. Elektr yoy nima? U qanday hosil bōladi?
3. Elektr yoy yordamida payvandlash uchun qanday qurilmalar ishlataladi?
4. Elektrodlar haqida nima bilasiz? Elektrod ustidagi qoplama qanday vazifani bajaradi? Elektrodlarni tayyorlash jarayonini ta'rifab bering.

# Adabiyotlar:

- Materials science and engineering. An Introduction. William D.Callister, Jr. David G. Rethwisch. 346 b.
- Fundamentals of modern manufacturing. Marerials, processes and systems. Fourth editions. Mikell P. Groover. 156 b.
- S.D. Nurmurodov va boshk. Materialshunoslik — Тошкент, "Fan", 2004

## Qo`shimcha adabiyotlar:

- Мирбобоев В.А.Конструкцион материаллар технологияси. — Тошкент, "Ўқитувчи", 2004 й. - 408 б.
- Илхом Носир. Материалшунослик. —Тошкент, “Ўзбекистон”,2002 й – 350 б.
- Пўлатов С., Рахмоналиев И., Қосимов Қ. Материалшунослик ва конструкцион материаллар технологиясидан амалий машғулотлар — Т. “ Мехнат”, 1992 й. –136 б.
- Дриц М.Э., Маскальев М.А.Технология конструкционных материалилов. — М. Высшая школа, 1990 г.



TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ  
XO'JALIGINI MEXANIZATSİYALASH  
MUHANDISLARI INSTITUTI



# E'TIBORINGIZ UCHUN RAHMAT!



Tashpulatov Quvondiq  
Berdibekovich



Umumtexnik fanlar  
kafedrasi katta o'qituvchisi



+ 998 71 237 09 72



[tashpulatovkuvandik@gmail.com](mailto:tashpulatovkuvandik@gmail.com)